

№434, 6-dekabr, 2021 y.

**COVID
19**

COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 5-dekabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	265 691 180	(+ 530 740)
Sog'ayganlar soni	-	239 370 742	(+ 377 775)
Vafot etganlar soni	-	5 263 830	(+ 5 737)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	49 934 791	(+ 56 742)
	Hindiston	-	34 633 255	(+ 8 895)
	Braziliya	-	22 138 247	(+ 8 838)
	Buyuk Britaniya	-	10 421 104	(+ 42 848)
	Rossiya	-	9 769 011	(+ 32 974)
	Turkiya	-	8 881 760	(+ 20 374)
	Fransiya	-	7 875 012	(+ 51 624)
	Germaniya	-	6 143 856	(+ 46 379)
	Eron	-	6 131 356	(+ 2 157)
	O'zbekiston	-	194 333	(+ 228)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 4-dekabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 848 776	7 035
Andijon viloyati	3 333 962	20 189
Buxoro viloyati	1 996 812	9 737
Jizzax viloyati	1 328 745	3 118
Qashqadaryo viloyati	2 629 753	20 087
Navoiy viloyati	1 233 547	3 029
Namangan viloyati	3 433 727	15 349
Samarqand viloyati	3 793 048	42 184
Surxondaryo viloyati	2 823 653	15 724
Sirdaryo viloyati	804 628	1 990
Toshkent viloyati	3 329 306	17 369
Farg'ona viloyati	3 824 974	24 496
Xorazm viloyati	2 138 627	11 548
Toshkent sh.	2 355 025	21 854
Jami	34 874 583	213 709

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



JSST tomonidan baholash jarayonida COVID-19 ga qarshi vaksinlarning holati

2021 y. 3-dekabr holatiga ko'ra


№	Ishlab chiqaruvchi	Vaksina nomi	Platforma	Arizalarni qabul qilish	Uchrashuv o'tkazish	Ma'lumotnomani ko'rib chiqish uchun qabul qilish	Baholash holati	Kutilayotgan chiqish sanasi
1	Pfizer	BNT162b2/COMIRNATY	mRNK	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 31.12.2020
2	AstraZeneca/University of Oxford	AZD1222	Recombinant replication defective chimpanzee adenovirus expressing surface glycoprotein SARS-CoV-2	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 15.02.2021
3	Janssen	Ad26.COV2.S	Recombinant vector vaccine against adenovirus type 26 (Ad26), incapable of replication, encoding Spike (S) protein (SARS-CoV-2)	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 12.03.2021
4	SK BIOscience - AstraZeneca/University of Oxford	AZD1222	=	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 16.04.2021
5	Serum institute of India	Covishield	Recombinant adenoviral vector ChAdOx1 encoding the Spike SARS-CoV-2 protein antigen	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 16.04.2021
6	Moderna	mRNA-1273	mRNA-based vaccine encapsulated in lipid nanoparticles	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 30.04.2021
7	Sinopharm / BIBP	SARS-CoV-2 Vaccine (Vero Cell), Inactivated (InCoV)	Inactivated, produced in Vero cells	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 07.05.2021
8	Sinovac	SARS-CoV-2 Vaccine (Vero Cell), Inactivated	Inactivated, produced in Vero cells	+	+	+	Yakunlangan	Tasdiqlangan 01.06.2021
9	Gamaleya nomidagi markaz	Sputnik V	COVID-19 vaccine based on human adenovirus vector	+	+	Rolling Review jarayoni davom etmoqda	Jarayon qayta ishga tushirildi	

Manba:

Status of COVID-19 Vaccines within WHO EUL // https://extranet.who.int/pqweb/sites/default/files/documents/Status_COVID_VAX_20Oct2021.pdf

Vaksinani tasdiqlagan va undan foydalanilayotgan mamlakatlar soni

2021 y. 3-dekabr holatiga ko'ra



Manbalar:

*Approved or Authorized Vaccines // <https://www.nytimes.com/interactive/2020/science/coronavirus-vaccine-tracker.html>

COVID-19 Vaccine Market Dashboard //

<https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboard>


**Tracking Coronavirus Vaccinations Around the World //

<https://www.nytimes.com/interactive/2021/world/covid-vaccinations-tracker.html>

Mamlakatlar va kontinentlar kesimida COVID-19 ga qarshi emlanganlar soni

2021 y. 3-dekabr holatiga ko'ra

№	Davlatlar	Emlanganlar soni		Aholining umumiy sonida emlanganlarning ulushi	
		100 ta kishiga	Jami	Bitta doza bilan emlangan	To'liq emlangan
	Dunyo	105	8 025 139 889	56%	45%
1	BAA	221	21 548 528	99%	90%
2	Bruney	173	748 008	93%	80%
3	Kuba	251	28 402 651	90%	81%
4	Singapur	215	40 833 753	89%	85%
5	Chili	177	10 083 329	89%	88%
6	Portugaliya	159	16 308 391	88%	87%
7	Xitoy	179	2 507 975 000	88%	79%
8	Malta	190	956 338	87%	86%
9	Kambodja	174	28 716 448	86%	81%
10	Qatar	176	4 979 699	83%	78%



Manba:

Tracking Coronavirus Vaccinations Around the World //


<https://www.nytimes.com/interactive/2021/world/covid-vaccinations-tracker.html>



COVID-19 ga qarshi vaksinalarning narxi

2021 y. 3-dekabr holatiga ko'ra

No	Vaksinaning ishlab chiqaruvchisi	Vaksinalarning narxi (bitta doza uchun)*
1	Pfizer	\$6,75-18,90
2	AstraZeneca/University of Oxford	\$2,19-5
3	Serum institute of India	\$3-13,27
4	Sinopharm	\$144,27 (2 ta doza uchun)
5	Sinovac	\$10,30-29,75
6	Moderna	\$15-37
7	Janssen	\$8,50-10
8	The Gamaleya National Center (Sputnik V)	\$11-19,90



Manba:

* COVID-19 Vaccine Market Dashboard //

[https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-](https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboar)

[dashboar?utm_source=facebook&utm_medium=organic&utm_campaign=coronavirus&fbclid=I](https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboar?utm_source=facebook&utm_medium=organic&utm_campaign=coronavirus&fbclid=IwAR101804JupyKfUU1u6osTc-nNVGj7kiYDI8eJtiMUgjEIALGhYO3w0EE)

[wAR101804JupyKfUU1u6osTc-nNVGj7kiYDI8eJtiMUgjEIALGhYO3w0EE](https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboar?utm_source=facebook&utm_medium=organic&utm_campaign=coronavirus&fbclid=IwAR101804JupyKfUU1u6osTc-nNVGj7kiYDI8eJtiMUgjEIALGhYO3w0EE)



O'zbekistonda kuchaytiruvchi doza sifatida “Sputnik Light” vaksinasini qo'llash boshlandi

Rossiyaning “Sputnik Light” COVID-19 ga qarshi vaksinasi endilikda O'zbekistonda kuchaytiruvchi doza sifatida qo'llanilmoqda, deb xabar berdi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati (SES) [2].

30-noyabr kuni Toshkent viloyatining 65 va undan katta yoshdagi 26 nafar fuqarosi Sputnik Lightning kuchaytiruvchi dozasini oldi.



Sputnik Light – “Sputnik V” vaksinasining birinchi komponenti bo'lib, u 2020-yil avgust oyida dunyodagi birinchi bir komponentli vakcina sifatida ro'yxatga olingan koronavirus vaksinasiga aylandi. Bu SARS-CoV-2 koronavirusining genetik ma'lumotlarini tashish uchun ishlatiladigan inson adenovirusiga asoslangan vektorli preparatdir. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra, “Sputnik V” ning samaradorligi 97,6% ni tashkil qilmoqda [3].



Yevropa dori-darmon agentligi covid-19ga qarshi Valneva vaksinasini ekspertiza uchun oldi

Yevropa dori vositalari agentligining EMA qo'mitasi Fransiyaning Valneva biotexnologiya kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan VLA2001 koronavirus vaksinasini ekspertizadan o'tkazish ishini boshladi.



Qaror dastlabki laboratoriya ma'lumotlari(klinik bo'lmagan ma'lumotlar)ga va kattalardagi erta klinik sinovlarga asoslanadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, vakcina COVID-19 keltirib chiqaradigan SARS-CoV-2 virusga qarshi antitanalar ishlab chiqaradi va kasallikdan himoya qilishga yordam beradi [4].

Yevropa Dori-darmon agentligi mavjud ma'lumotlarni baholab boradi va vaksinaning foydali tomoni xavflardan ustun turishi yoki yo'qligini hal qiladi.

Agentlik, shuningdek, VLA2001 vaksinasining samaradorlik, xavfsizlik va sifat bo'yicha Yevropa Ittifoqi standartlariga mos kelishini baholaydi.



Oktyabr oyida Valneva o'z vaksinasining III bosqich sinovi haqida ma'lumotni e'lon qildi va uni AstraZeneca kompaniyasining koronavirus preparati bilan taqqosladi. Kompaniyaning ta'kidlashicha, VLA2001 bemorlari AstraZeneca vaksinasidan ko'ra yuqori antitana titrlarini hosil qilgani haqida xabar berdi. Tadqiqotlarda Buyuk

Britaniyadagi 26 tadqiqot markazlarida 18 va undan katta yoshdagi 4 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi [5].

Polsha bolalarni COVID-19 ga qarshi emlashni boshlaydi

Polsha hukumati 13-dekabr kuni mamlakatda 5 va undan katta yoshdagi bolalarni COVID-19 ga qarshi emlashni boshlashini ma'lum qildi. Sog'liqni saqlash va ta'lim vazirlari ota-onalarga xat yo'llab, ularning xavfsizligini ilmiy dalillarga asoslanib, farzandlarini emlash uchun ro'yxatdan o'tkazishga chaqirdilar [6].




“Vaksinalar nafaqat samarali himoya, balki yil davomida maktabda o'qishni davom ettirish imkoniyatidir”, deyiladi maktubda. Qayd etilishicha, emlangan maktab o'quvchilari va maktabgacha yoshdagi bolalar sinfida COVID-19 kasalligi aniqlansa, 10 kun davomida karantinga olinmaydi.

Shuningdek, vazirlar o'z maktubida 12 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan bolalarda emlashdan keyingi nojo'ya reaksiyalar faqatgina 0,02% hollarda yengil sodir bo'lganligi haqida ta'kidladilar. Ular “kichkintoylar uchun vaksinaning samaradorligi va xavfsizligini tasdiqlovchi ilmiy dalillarni” keltirdilar.



Polsha Sog'liqni saqlash vazirligi rahbari o'rinbosari Valdemar Kraska hukumat shuningdek, infeksiya xavfi yuqori bo'lgan guruhlarda COVID-19 uchun majburiy testni joriy etish niyatida ekanligini qo'shimcha qildi. Gap, xususan, shifokorlar va o'qituvchilar haqida ketmoqda [7].

Paintning ta'kidlashicha, Polsha test bepul sinovini qildirish imkoniyatini beradi, bu esa odamlar ijobiy natija bergan taqdirda ham avtomatik ravishda karantinga olib kelmaydi. Bu model “juda foydali”, dedi u.



“Sputnik V” vaktsinasi “Omicron” shtammiga qarshi samaradorligi baholandi

Virusolog, molekulyar biolog, Rossiya Fanlar akademiyasi a'zosi Sergey Netesov koronavirusga qarshi “Sputnik V” vaktsinasi “Omicron” shtammi bilan kasallanishga qarshi samarali ekanligini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, hatto ko'plab mutatsiyalar ham bunga to'sqinlik qila olmaydi [8].

Omicron shtammi 1273 ta aminokislota uchun oqsilda 32 ta mutatsiyaga ega bo'lishiga qaramay, uning genomidagi 29 ming nukleotiddan atigi 50 tasi mavjud.



Shunday qilib, virusning mutatsiyasi mavjud vaktsinalarning samarasizligini ko'rsatadigan darajada ahamiyatli emas.

Mutaxassis, shuningdek, yaqin oylarda “Omicron” shtammiga qarshi preparatlar samaradorligining aniq ko'rsatkichlari e'lon qilinishini ta'kidladi [9].

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (05.12.2021)
2. Approved or Authorized Vaccines // <https://www.nytimes.com/interactive/2020/science/coronavirus-vaccine-tracker.html> (03.12.2021)
3. COVID-19 Vaccine Market Dashboard // <https://www.unicef.org/supply/covid-19-vaccine-market-dashboard> (03.12.2021)
4. Tracking Coronavirus Vaccinations Around the World // <https://www.nytimes.com/interactive/2021/world/covid-vaccinations-tracker.html> (03.12.2021)
5. Служба санитарно-эпидемиологического благополучия и общественного здоровья страны // <https://t.me/s/sanepidxizmat> (03.12.2021)
6. В Узбекистане начали использовать "Спутник Лайт" в качестве бустерной дозы // <https://ria.ru/20211202/vaktsina-1761753567.html> (03.12.2021)
7. EMA starts rolling review of Valneva's COVID-19 vaccine (VLA2001) // <https://www.ema.europa.eu/en/news/ema-starts-rolling-review-valnevas-covid-19-vaccine-vla2001> (03.12.2021)
8. В ЕМА взяли на экспертизу вакцину Valneva против COVID-19 // <https://pharmvestnik.ru/content/news/V-EMA-vzyali-na-ekspertizu-vakcinu-Valneva-protiv-COVID-19.html> (03.12.2021)
9. Covid vaccination for children aged 5+ to begin this month in Poland // <https://notesfrompoland.com/2021/12/02/covid-vaccination-for-children-aged-5-to-begin-this-month-in-poland/> (03.12.2021)
10. Польша начнет в декабре Covid-вакцинацию детей с 5 лет // <https://www.pravda.com.ua/rus/news/2021/12/3/7316088/> (03.12.2021)
11. Вирусолог оценил эффективность "Спутника V" против омикрон-штамма // <https://www.belnovosti.by/koronavirus-covid-19/virusolog-ocenil-effektivnost-sputnika-v-protiv-omikron-shtamma> (03.12.2021)
12. Оценена эффективность "Спутника V" против омикрон-штамма // <https://peterburg2.ru/news/ocenena-effektivnost-sputnika-v-protiv-omikronshtamma-104967.html> (03.12.2021)

**COVID
19**

**Coronavirus
Vaccine**



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021